

TOSHKENT VILOYATIDA INTENSIV USULDA BALIQ YETISHIRISHNING XUSUSIYATLARI

Bekturova Nigoraxon Baxtiyor qizi

Muxitdinova Nozimaxon

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali*

Annotatsiya: Maqolada viloyatda baliqchilikni rivojlantirish va tovar baliq mahsulotlarini hajmini oshirishda zamonaviy intensiv texnologiyalarni qo'llash. Karp balig'ini intensiv xovuz va qafas usulida ko'paytirish, saqlash va oziqlantirish me'yorlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Karp balig'i, xovuz, qafas usul, mahsulot, intensiv, texnologiya.

Mavzuning dolzarbligi: Baliqchilik bugungi kunda chorvachilikning istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylandi. Shubhasiz bu borada mamlakatimizda ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. Dengizga chiqish yo'li bo'lmagan, unga chiqish uchun kamida ikkita davlat chegarasidan o'tishi kerak bo'lgan dunyodagi ikki davlatdan beri O'zbekistonda suv resurslari cheklangan bo'lib, baliqchilikni rivojlanishiga katta to'siqlar mavjud, shunga qaramasdan Respublika hududida ko'plab suv omborlar, ko'llar mavjud bo'lib, ulardan unumli foydalanib, zamonaviy intensiv usulda baliq yetishtirib yaxshi natijalar olsa bo'ladi.[1,2]

Ushbu dolzarb masalaning yechimini topish maqsadida Respublika Prezidentining baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha bir qancha qaror va farmonlari muhim ahamiyatga ega.[3]

Jumladan mamlakatimiz miqyosida 3000 dan ziyod baliqchilik xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda. 2018 yilda baliq yetishtirish prognoz parametrlariga ko'ra Respublikada 150 ming tonna baliq yetishtirish va yil davomida 2 mln AQSh dollari qiymatidagi baliq va baliq mahsulotlarini eksport qilinishi mo'ljallanmoqda. Shundan Samarqand viloyatida ham baliq yetishtirish hajmini oshirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Viloyatda baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha hamma sharoitlar mavjud bo'lib, bu imkoniyatlardan unumli foydalanib baliqchilik bilan shug'ullanayotgan xo'jaliklar muvaffaqiyat va yutuqlarga erishmoqdalar.[4]

Viloyatimizda 389 ta baliq yetishtiradigan xo'jaliklar mavjud, shundan 352 tasi fermer xo'jaliklari, 35 tasi MChJ lardan iborat. Baliqlarning asosiy qismi Zarafshon daryosi, sun'iy suv havzalarda va viloyatning 6 ta suv

omborida yetishtirilmoqda. Kattaqo'rg'on suv ombori, Urgutdagi Qoratepa, Ishtixondagi Oqdaryo, To'sinsoy, Payariqdagi Qarasuv va Sho'rko'l suv omborlaridir. Shundan qafas(sadok) usulida baliq yetishtirish Kattaqo'rg'on va Urgutning Qoratepasida mahsuldorligi 1m³ suvda 120 kg gacha tashkil etmoqda. Ular reproduktiv xo'jaliklardan tayyor baliq chavoqlarini keltirib (apreldan boshlab xovuzlarga qo'yiladi) to oktyabr, noyabrgacha o'stirilib, tirik vazni 1-1,2 kg bo'lgan tovar baliq bo'lib yetishadi. 1 kg chavoq 30-35 ming so'mni tashkil etadi. Baliqlar uchun yuqori oqsilli ozuqaning 1 kg narhi 2,5- 3 ming so'm bo'lib, ozuqa konversiyasi 1 kg tirik vazn olishiga 2-2,5 kg omixta-yem to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 17-18 mart kunlari Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishida baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish va Samarqand viloyatida baliq yetishtirish hajmini 10 ming tonnaga yetkazish bo'yicha topshiriqlar berilib, chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturdan kelib chiqqan holda viloyatda yangi baliqchilik xo'jaliklarni tashkil etish, ularni moliyalash, har taraflama qo'llabquvvatlash, zamonaviy intensiv va yarim intensiv ko'l, xovuz, qafas (sadok) va basseynlarda baliq yetishtirish, ularga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan.[5,6

Viloyatda an'anaviy tarzda baliq yetishtirishdan sanoat baliqchiligining yangi tarmoqlariga o'tish bugungi kundagi nafaqat viloyat balki Respublika doirasidagi dolzarb vazifadir. Sanoat baliqchiligining yangi tarmoqlaridan intensiv ko'l, xovuz baliqchiligi, qafas usulida va basseynlarda baliq yetishtirish dunyoning ilg'or akvakultura rivojlangan davlatlari Vetnam, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Tailand, Daniya, Norvegiya va AQSh da keng qo'llanilmoqda. Yuqoridagi keltirilgan davlatlarda baliqchilik bilan asosan kichik dehqon va fermer xo'jaliklar shug'ullanishadi. Ohirgi o'n yillikdagi iqtisodiy islohatlar, davlatimiz tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarga yaratilgan imkoniyatlar, fermerlarni o'z mehnati natijasidan daromad olishi ta'minlandi. Bu esa o'z navbatida baliqchilik bilan shug'ullanayotgan xo'jaliklarni har tomonlama rivojlanishiga turtki bo'ldi. Respublikamizda baliqchilik xo'jaliklarining asosiy ob'ekti bo'lgan baliqlar; sazan, karp, oq dungpeshona, oq amur, afrika laqqasi, karas. Yaqin yillarda urchitish uchun mo'ljallangan yangi obektlardan; forel, venger karpi, osyotr, tilyapiya baliqlaridir. Aholi sevib iste'mol qiladigan va bozorlarda asosan ko'p sotiladigan baliq bu karp. [7,9]

Karp – Respublikamizda baliqchilikning asosiy ob'ektlaridan biri hisoblanib, u saqlash sharoitlariga yaxshi ko'nikadi, ham tabiiy ham sun'iy ozuqalarga oson moslashuvchan, potensial o'sish ko'rsatkichlari optimal sharoitda suvni harorati 20-26 da bir yilda tirik vazni 1-1.5 kg, ikkinchi yilda esa 2.5-3 kg gacha yetadi. Karpni asosan intensiv usulda xovuzlarda, qafas, yopiq suv ta'minoti tizimida basseynlarda

yetishtirish mumkin. Intensiv xovuz usulida boqilganda 1 gektar maydondan 2-5 tonna baliq olinadi. Qafas usulida esa bu ko'rsatkich 1 m³ suvda 150-250 kg ni tashkil etadi.[8]

Tovar karp baliq'ini yetishtirish uchun standart maqbul variant 40-50 grammlik bir yozlik baliq chavoqlaridan foydalanish. Bir yozlik baliq chavoqlari ya'ni (segoletka) 1 gektar maydonga o'rtacha 2500-3000 dona xovuzga tashlanadi. Yashab ketish ko'rsatkichi 80-85 % tashkil etadi. Baliqlarni qafas va basseynida yetishtirishda, xovuzda boqishdan farqi ular tabiiy oziqlanmaydilar. Intensiv usulda baliq yetishtirishning o'ziga xos farqlanishi baliqlarning yuqori darajadagi zichlikda saqlanishi (300 dona/m²) va tabiiy oziqlanmasligi. Shuning uchun ham intensiv usulda baliq etishtirishda baliqlar uchun beriladigan omixta-yem to'la qiymatli, o'zida yuqori darajada protien, energiya, vitaminlar, mineral moddalar saqlashi va shu bilan birga havfsiz, ekologik toza bo'lishi zarur. Amaliyotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, xovuzlarda boqiladigan karplarga beriladigan omixta-yem bilan qafas yoki basseynlardagi baliqlarni oziqlantirib yaxshi natija olib bo'lmaydi.[7,8]

Akvakultura ob'ektlarini yetishtirishda, shu qatorda karpni ham oziqlantirishda 2 hil kategoriyadagi oziqalar; optimal baliqlarni saqlanishi zoogigienik talablarga javob beradigan xo'jaliklar va tejamkor rentabellik darajasi past bo'lgan sharoitlardagi xo'jaliklar uchun. Karp baliqlarni intensiv usulda boqilganda omixta-yem tarkibida protien miqdori 35 % dan kam bo'lmasligi, kompleks vitamin va minerallar bo'lishi kerak. Suvning harorati 20 dan yuqori, 6-7 oy boqilganda 40-50 grammlik chavoqlar 1-1.2 kg lik tovar baliq bo'lib o'sadi. Oziqlantirishda omixta-yemning o'lchamlari ham muhim ahamiyatga ega. Ozuqa granulalarining o'lchami baliqlarni tirik vazniga mutonasib bo'lishi kerak. Bu esa ortiqcha omixta-yemni isrof bo'lmasligi va minimal ozuqa bilan o'sishini ta'minlaydi. Baliqlarni sutkaning yorug' qismida ertalab (6:00 dan kech soat 21:00) tirik vazni 50 gr lik chavoqlarni suvning harorati 20-24 da 6-8 marta, 24-28 da 8-10 marta oziqlantiriladi, suvning harorati pasaysa oziqlantirish ham kamayadi. Suvning harorati baliqlarni oziqlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Baliqlar o'rtacha kuniga tirik vaznini 5-6 % ga teng miqdorda ozuqalar iste'mol qiladilar. Baliqlarni oziqlantirishni eng yaxshi usuli – ozuqani granula shaklida berishdan iborat. Bunda beriladigan ozuqa, tezda titilib ketmaydi, suvda tarqalmaydi. Karplarni boqishda ozuqa berish normalariga alohida e'tibor berish zarur. Aks holda moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari uchrashi va kata iqtisodiy zarar olib kelishi mumkun.[2.6]

Xulosa: Shuni ta'kidlashimiz kerakki Prezidentimiz qaysi viloyatlarda bo'lsa ham xalq xo'jaligining hamma sohalarini jumladan

baliqchilikni ayniqsa inson salomatligini tiklashda baliq go'shtini muhimligini anglab, ilg'or tajriba va bilimlarni amaliyotga qo'llab, baliq va baliq mahsulotlarini ko'paytirishga astoydil kirishganligi mamlakatimiz xalqini quvontirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshburiyev, S. B., Kasimov, S. J., & Aslonova, M. A. (2023). Causes and symptoms of protein metabolism disorders in fish. In Proceedings of international conference on scientific research in Natural and Social Sciences (Vol. 2, No. 1, pp. 55-63).
2. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.
3. Sobir, E. (2016). Etiopathogenesis and symptoms of vitamin–mineral metabolism violation in cows. *International Journal of Applied Research*, 2(6), 265-267.
4. Bakhtiyorovich, E. S., & SaifiddinJakhongirUgli, K. (2023). DIAGNOSIS OF PROTEIN METABOLISM DISORDERS IN FISH. *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations*, 3(05), 04-12.
5. Eshburiyev, S., Kasimov, S., Badirova, K., & Shomurodov, M. (2021). ПРОФИЛАКТИКА НАРУШЕНИЯ БЕЛКОВОГО ОБМЕНА У РЫБ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
6. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.
7. Sh, N., Elmurodov, B. A., & Eshburiev, S. B. (2022). TUXUM YONALISHDAGI TOVUQLAR MAHSULDORLIGIGA NOVAMIX PREMIKSINING TASIRI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 476-479.
8. Kasimov S. J., Bekturova N. B. BASIN WATER IN FISH GROWTH AND DEVELOPMENT SIGNIFICANCE //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 2. – №. 15. – С. 126-129.
9. Qasimov S. J. et al. SPREAD OF DISEASES OF METABOLISM DISORDERS IN FISH //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 439-444.